

## **RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

*Soatov Nodirbek Orifovich*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Unversiteti. Maxsus pedagogika va inkulziv ta'lim fakulteti ,  
Oligofrenopedagogika yo'nalishi kechki 201-guruh talabasi.  
Telefon: +998 91 900 95 04  
[soatovnodirbek47@gmail.com](mailto:soatovnodirbek47@gmail.com)*

### **ANNOTATSIYA:**

Ushbu maqolada defektologiya va uning bir yo'nalishi oligofrenopedagogika to'g'risida umumiy tushuncha. Aqli zaiflikning kelib chiqishi, bola hayotidagi ahamiyati, ularning ta'lim olishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni erta aniqlab ularga tashxis qo'yish, va nuqsonni erta bartaraf etish, bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlantirishning umumiy va maxsus didaktik tamoyillarini, shakli, mazmuni, metodlari haqida so'z boradi.

**KALIT SO'ZLAR:**Maxsus pedagogika, oligofrenopedagogika, aqli zaiflik, debil, inbetsillik, reabilitatsiya, kompleks, nuqson, rivojlanish, tashxis, nutq, defktalogiya.

### **KIRISH**

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, Ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri baholay olishga bog'liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologopedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologopedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual psixologopedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlardan avvalo har bir bolaning xususiyatlari e'tiborga olgan holda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, keraqli maxsus texnik vositalarni, maxsus tayyorgarlikka ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy -profilaktik hamda davolov tadbirlarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lim muassasalarini texnik va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda turli xil maxsus ta'lim muassasalari mavjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'jalangan va

O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalar bilan bir qatorda turli rehabilitatsiya markazlari, rivojlantirish markazlari, aralash guruhlar ochilgan. Shuningdek, umuta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nugsoni bo'lgan bolalarni uchratish mumkin. Har qanday jamiyat o'z farzandlari har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishiga, munosib fuqorolar bo'lib, davlat taraqqiyotiga, gullab yashnashiga o'z ulishlarini qo'shishlariga harakat qiladi, umid bog'laydi.

### **ADABIYOTLAR TAXLILI**

Hozirgi kunda O'zbekistonda defektologiya – maxsus yordamga muhtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan ularning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Shuning bir yo'nalishi oligofrenopedagogika - aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan bo'lib, defektologiyaning bir qismini tashkil qiladi. Pedagogikaning umumpedagogik va didaktik prinsiplarini qo'llash shakli zaif bolalar tarbiyasida o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Ta'limiy materiallarni tanlash, mehnat tayyorgarligini aniqlash, aqli zaif bolalarni mehnat faoliyatiga jismoniy rivojlantirish ishlarining mazmuni tuzatishga yo'naltirilishi kerak. Korreksiyalash deganda, aqli zaif bolalarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini to'g'rilash, yumshatish, hayotga moslashtirish tushuniladi. Tuzatish ishlarida nuqsonli bolalarning rivojlanish imkoniyatlariga asoslanadi. Oligofrenapedagogika – aqli zaif bolalar ishtirok etadigan pedagogik jarayon bilan bog'liqdir.

Bu holat bolaning yoshligidagi anotomik, fiziologik ruhiy ma'lumotlarning zarurligini taqazo etadi. Ayniqsa aqli zaiflikning sabablari rivojlanishida klinikasiga oid materiallar talab etiladi. Shu sababli oligofrenapedagogika – aqli zaif bolalar ta'lim – tarbiyasi masalalarini ishlab chiqishda onotomopatologik, patofiziologik, potapsixologik ma'lumotlarga tayanish lozim. Ayniqsa asab kasalliklari, ruhiy kasalliklar, bolalar psixonevrologiyasi, aqli zaiflik klinikasi, genetika, maxsus psixologiya ma'lumotlariga asoslanish kerak. Bu ma'lumotlar aqli zaif bolalar ta'lim tarbiyasida ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yordam beradi. Chet el «defektologlarining» ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar ongi tashqi olamni aks ettirish sifatida emas, balki ularning ichki nuqsonli holatining aks etishidir. Shu asosda ular aqli zaif bolalarga «axloqiy nuqsonlilik», «axloqsizlik» xosdir, deb tushuntirishga urinadilar. Aqli zaif bolalar tug'ma yolg'onchilik, egoizm, qaysarlik kabi xislatlar bilan dunyoga kelar ekanlar.

Ularning ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar rivojlanishga, tuzatilishga imkoniyatlari bo'lmagan nuqsonlilardir. Bunga o'xshash qarama-qarshiliklar, ayniqsa, sobiq tuzumning bolalarning aqliy qobiliyatlarini aniqlash vaqtlarida testlardan notg'ri foydalanish natijasida normal bo'lgan bolalarning ko'pchiligi asossiz ravishda

yordamchi maktablarga yuborildi. Bu narsa haqiqiy aqli zaif bolalarning ta'lim-tarbiya usullarini, tamoyillarini ishlab chiqishga juda katta salbiy ta'sir etdi. Tadqiqotlar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya diafunksiyalari ekaniligini ko'rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi. Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmod) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori- darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning oldini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir. Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu yerda o'qitish davlat ta'lim standarti asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Oligofrenopedagogikaning vazifalaridan biri aqli zaif o'quvchilarning umumiy rivojlanishini faollashtirishdan, rivojlanishning umumiy ta'lim darajasini oshirish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bu o'rinda tabiat, hodisalarini bevosita kuzatish, bolalarning shaxsiy tajribasiga tayanish, o'quv materialini tanlash va bayon etishning izchil mantiqqa egaligi katta ahamiyat kasb etadi. Boshqa bir vazifa aqli zaif o'quvchilarda abstrakt tafakkur hosil qilish imkoniyatlarini qidirishdan iboratdir. Aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha oliy asab faoliyatlari buzilgan bo'ladi. Patologik buzilishlar shartsiz reflekslarning hosil bo'lishida ham namoyon bo'ladi. Bu buzilishlar bosh miyaning qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarida ham o'z aksini topadi. Aqli zaif bola faoliyatida tashabbuskorlik, mustaqillikka intilish kabi shaxsiy xususiyatlar bo'lmaydi. O'zlarining mustaqil ishlarini aqliy jihatdan tushuntirib bera olmaydilar. Shu bois ular doim yordamga muhtojdirlar.

Hozirgi vaqtda yordamchi maktabda, asosan aqli zaiflikning yengil darajasi - «debil» bolalar ta'lim oladilar. Bular bir toifaga kirmaydigan bolalardir. Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniyani uch darajaga ajratiladi: debil, imbetsil va idiot. Debil - birmuncha yengil darajada bo'lib, oligofreniyaning eng ko'p tarqalgan darajasidir. Yordamchi maktabga, asosan shu guruh bolalari saralanadi. Imbetsillik - debil darajadan birmuncha og'ir darajada. Aqli zaif o'quvchilarga ijtimoiy ta'lim-tarbiya berish ishlari respublikamizda keyingi 25 yil ichida birmuncha takomillashdi. Xalq maorifi qonunida ta'kidlanishicha, o'zlarining jismoniy va ruhiy nuqsonlari asosida umumta'lim maktablari ta'lim-tarbiya olishga qodir bo'lmagan bolalar uchun maxsus umumta'lim maktablari va maktab-intematlari tashkil etilgan. Bu muassasalarda nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiya olish va davolanish bilan birga ijtimoiy-foydali mehnatda qatnashadilar. Xulosa qilib aytish kerakki aqli zaiflik deganda bosh miyaning organik jihatdan jarohatlanishi natijasida psixik, birinchi navbatda intellektual rivojlanishining turg'un pasayishi tushiniladi. Aqli zaif bolalar umum ta'lim maktablari dasturini o'zlashtirishga qodir bo'lmaydilar. Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar maktabda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib ololmaydilar. Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar maktabda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib ololmaydilar. Ular sekinroq sur'atga ega va idrokni kam farqlashadi. Aqli zaif bolalarni o'qitishda bu xususiyatlar tan olishning sus sur'atlarida namoyon bo'ladi, shuningdek o'quvchilar ko'pincha ovozli harflar, so'zlar o'xshash harflar, raqamlar, ob'ektlarni chalkashtirib yuborishadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda bunday bolalarga etibor kuchaytirilmoqda ularning ta'lim olishi uchun imkoniyatlar yaratilgan.

### **XULOSA**

Rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning nutqini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'rnida katta. Bolalar tasvirlashga qiziqishlari yuqori bo'lganligi sababli biror buyum yoki narsani tasvirlash jarayonida nomini qayta qayta takrorlash, tasvirlanish va nomlanishi murakkab buyum va narsalardan boshlamaslik kerak. Ba'zi bir xolatlarida nutqida muammosi bor bolalar bilan shug'ullanishning o'zi katta samara bermaydi. Bolani erta tashxis qilib organishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion ta'limga vaqtida yo'naltirib, ikkilamchi nuqsonlarni paydo bo'lishini oldini olish mumkin. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlariga korreksion va diagnostik yordam. Bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishini aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifalarini xalq etish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B.X.Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti “ Toshkent – 2017
2. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov “ Pedagogika “ Toshkent – 2016.
3. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova “ Pedagogika nazaryasi va tarixi “ Toshkent – 2010.

4. M.X.To'xtaxodjayev umumiy tahriri ostida "Pedagogika" 1 – qisim. Toshkent – 2010.
5. P.M.Po'latova "Maxsus pedagogika" Toshkent – 2005.
6. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. Toshkent 2016 -yil.
7. "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish" o'quv - uslubiy majmua.
8. <https://fayllar.org>